



# **OLAM LISONIY MANZARASINING SHAKLLANISHIDA NEYROPSIXOLINGVISTIKANING KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILARGA TA’SIRI**

**Abkarova Zuhro Akmaljonovna**

Farg‘ona davlat universiteti filologiya  
fanlari doktori, professor

**Abdullazizova Rohatoy Usmonaliyevna**

FarDU mustaqil izlanuvchisi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarida o‘zbek tili morfologiyasida sifat so‘z turkumiga oid so‘zlar olamning lingvo-rangli manzarasini shakllantirishning innovasion texnologiyalari ishlab chiqish va ularni o‘quvchi rivojlanishi uchun qanday foydalanish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash kabi masalalar dolzarb ekanligi o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvo-rangli, innovasion, neyropsixolingvistika, ishlab chiqish, olamning lingvo-rangli manzarasi.

O‘zbek tili morfologiyasida sifat so‘z turkumiga oid so‘zlar juda keng o‘rinni egallaydi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili ta‘limi jarayonida ularning ongida olam lingvorangli manzarasini shakllantirishda rang bildiruvchi leksemalarning o‘rinini monografik planda o‘rganishni talab qiladi. Bulardan tashqari, rang ifodalovchi til materiallari, shuningdek, sifatlarning darajalanish xususiyatlari ham bolalar uchun alohida lingvorangli olam manzarasini shakllantiruvchi xususiyatga ega. Bolalar tomonidan ongli ravishda qo‘llaniladigan birinchi sifatlar hajm, ta‘m, rang va haroratni bildiruvchi turli baho ifodalovchi so‘zlardir. Ular bolalar nutqida mustaqil leksik birliklar sifatida turli xil ot so‘z turkumidagi so‘zlar bilan ham birga qo‘llaniladi.

Har qanday tabiiy va tirik tilda yangi so‘zlar bilan boyish jarayoni to‘xtamaydi. Ularning ayrimlari esa so‘z yasash yo‘li bilan (masalan rang ifodalovchi leksik birliklarni) hosil qilinadi. Shuning uchun ham tilda so‘z yasalishi atrofimizda va olamda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiradi<sup>1</sup>.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar 6-7 yoshidan boshlab ona tilida mavjud eng sodda so‘z yasashning lisoniy qoliplaridan uzoqlashmagan holda so‘z yasashni o‘zlashtira boshlaydilar.<sup>2</sup> Mohiyatga ko‘ra, ularning barchasi maqsadli o‘rgatilgandagina bolalar to‘g‘ri so‘z yasashga o‘rganib borishlari mumkin. Biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida lingvorangli olam manzarasini shakllantirish jarayonida o‘zbek bolalarining lingvorangli olam manzarasida va

<sup>1</sup> Кубрякова, Е.С. Роль словообразования в формировании языковой картины мира / Е. С. Кубрякова // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира / Б.А. Серебrenников, Е. С. Кубрякова, В.И. Поставалова и др. – М. : Наука, 1988. – С.18

<sup>2</sup> Харченко, В. К. Сложные слова в детской речи / В. К. Харченко, Е. Г. Озерова. – Белгород : Изд-во Белгородского университета, 1999.

ularning ongida kechayotgan lisoniy va kognitiv jarayonlar maktabgacha ta'lim yoshidan boshlanib, boshlang'ich ta'lim jarayonida faol tarzda davom etishini kuzatdik. Bu jarayon har qanday tajriba olib boruvchilar uchun ijodiy jarayon sifatida har bir so'z yasalishi bu davrda ko'pincha okkozional xarakterga ega ekanligi bilan qimmatli. Bolalar boshlang'ich ta'lim jarayonigacha kattalar nutqi orqali tub rang ifodalovchi sifatlar bilan tanish bo'ladilar. Yasama rang sifatlariga esa ularning nutqida sekin-asta atrof olamdagi ranglarni idrok etishi barobarida zarurat tug'iladi. Ranglarning inson ongi va tasavvuriga ta'siri sabab yillar davomida odamlar ranglarning xususiyatiga kirib borishni, ularni to'liq idrok etishni istashgan. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, boshlang'ich ta'limda ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifalaridan biri sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'quvchilarda ona tili grammatikasiga oid bilimlarni rivojlantirish;
- ranglarni to'g'ri tanlash rang estetikasini o'rgatish;
- rang ifodalovchi leksemalar yordamida ularda lingvorangli olam manzarasini shakllantirishdan iborat.

Ona tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'z yasalishi haqidagi elementar bilimlar berib borilganda ularda atrof-olamdagi ranglar va rang ifodalovchi leksemalar o'rtasidagi bog'lanishni to'g'ri belgilaydilar. Rang-tusni ifodalovchi birliklarning bolalar nutqida qo'llanish jarayonini kuzatar ekanmiz, ba'zi hollarda o'quvchilar rangning ma'nosi va u haqidagi fikrini to'g'ri qo'llay olmaydi. Masalan yorqin qizil rangni o'quvchi avval o'zi bilganidek ifodalashga harakat qildi. Keyinchalik esa, uning belgisini darajalab, ya'ni belgini kuchaytirishga harakat qildi. Jumladan, "qip-qizil lola". Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning lingvorangli olam manzarasini shakllantirish "Ona tili", "Tabiat" va "Tasviriy san'at" o'quv darslarida amalga oshiriladi. Rang haqidagi tasavvurlar va ranglarning xususiyatlari ko'pincha tabiat va tasviriy san'at bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilarda ba'zi rang ifodalovchi sifatlar o'simliklarning tuzilishi, ishlangan rasmlardagi rang elementlarining o'zaro bog'liqligi rang va xususiyatlarning assosiativ munosabatini keltirib chiqaradi. Masalan, lola va gilos rangini bolalar o'simliklar hamda mevalarining rangiga qarab nomlashadi.

Ma'lumki, rang bildiruvchi sifatlar aniq bir rangni bildirib keladi. Asosiy rang nomlarini bildiruvchi sifatning aksariyati birikma tarzida kelib milliy olam manzarasini aks ettiradi. Masalan, "qora" rangini ifodalovchi qora sifati "qora ko'ngil", "qora niyat", "qora mushuk", "qora ish", "qora suyak", "qora xalq", "qora kun", "qora xat" milliy psixologiyani, milliy ongni va o'zbeklar lingvorangli manzarasida aks etgan milliy olam lisoniy manzarasiga xos bo'lgan milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalab keladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida oq sifatiga antonim bo'lgan qora sifatini juftlik tarzida o'zlashtiradilar, lekin zarur paytda juftlikning bir qismidan foydalanadilar. "Qora" sifati haqida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tajriba-sinov ishlari olib borilganda ular bu rangni ifodalovchi leksik birlikdan asosan rang va laqab masalan, "qoravoy" sifatida ko'chma ma'no borligini anglamasalar ham undan foydalanishlari kuzatildi. Fiziologik tuzilish jihatdan sariq soch, sariq kiprikli, oppoq bolalarga nisbatan esa "sariq mashak" laqabi bolalar nutqida uchraganidan o'quvchilarning sifat so'z turkumi orqali ifodalangan ranglarning o'ziga xos belgilarini va ko'rsatkichlarini ajrata boshlaganliklarini ko'rish mumkin.

O'tkazilayotgan tajribalar orqali bolalarda hissiy, aqliy va nutqiy rivojlanishdan ortda qolish, umuman, idrokning davomli emasligi aniqlanib kelinmoqda. Bu esa bolalardagi neyrorang-



baranglik doimiy kuzatish va tahlillarga muhtoj ekanligini ko'rsatmoqda.<sup>3</sup> Ta'kidlash kerakki, bolalar rang ifodalovchi sifatlarning avvalo so'z sifatida ma'lum bir tematik guruhga (masalan, rang, hajm v.h) keyinroq esa, o'zi mansub tematik guruhda so'zning egallagan o'rnini o'rganadi. Boshqacha aytganda, so'z ma'nosining umumiy semantik komponentlarini ertaroq o'zlashtirsalar, farqlovchi ma'nolarini keyinroq anglab yetadilar. Ma'lum bo'lishicha ko'p bolalar ma'lum bir davrda u yoki bu ranglarni qaysidir so'zlar ifodalashini ang'ay boshlaydilar, lekin bir biriga yaqin ranglardagi o'zaro o'xshashlik va farqni juda erta idrok etishlariga qaramay, ranglarni ifodalovchi sifatlari o'rtasidagi farqni tushuna olmaydilar. Ya'ni nutqni idrok etish uni ishlab chiqishga nisbatan sezilarli darajada ustundir. Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lumki, biror bir predmetning rangi qanaqa ekanligi to'g'risidagi savolga javob bera olmaydigan olti oylik bola ham tabiatdan ranglarni o'zlashtirishni boshlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari borliqdagi ranglarni sifat-leksemalar bilan ifodalaganda ham o'z leksikasida bolalarga xos yasama so'z bilan nomlashga harakat qiladi. Aynan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqiga xos bo'lgan yasama so'zlarning semantik strukturasi ular o'zlashtirayotgan ranglar olamining darajasini aks ettiradi. Rang belgilarini ifodalashda yaltiroq va och pushti rangiga nisbatan pum pushti, to'q pushti rangiga nisbatan esa kir pushti tarzida sinaluvchi o'quvchilar tomonidan, izohlangan. Yuqorida ta'kidlanganidek, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ongida och so'zining asl ma'nosidan ko'chib rang ottenkalarini, ya'ni ozaytirish darajasini ifodalab kelishi to'g'risida nazariy ma'lumot yetarli bo'lmasa-da ularda shunday usul bilan so'z yasash qolipi ularning ongida shakllanishni boshlaganligi sabab shu usulda ranglarni nomlaydilar. Ko'rinadiki, o'quvchilarning olam rangli-lisoniy manzarasida borliqda mavjud ranglarning aksariyati bor bo'lsa-da, ularning so'z zahirasida, nutqida o'zbek tilida rang ifodalovchi leksemalarning kamligi tufayli ular tomonidan keltirilgan ta'riflar qisqa va noaniq. O'quvchilarga berilgan topshiriqlarda ranglarning nomlanishi ular uchun qiyinchilik tug'dirgan. Yorqin qizil yoki to'q qizil rangni o'quvchilar avvaliga "qiiiiizzil" deb izoh bergan bo'lsa keyin uning belgisini kuchaytirishga yanayam ko'proq harakat qilganlar. Chunki mazkur yoshgacha bo'lgan davrda o'quvchilar kattalar nutqida uchragan lisoniy qoliplarni o'zlashtirish asosida ona tiliga xos so'z shakllarini yasab fikr ifodalashga harakat qiladilar.

Ko'rinadiki, bolaning fikri nutq orqali to'g'ri ifodalangan bo'lsa-da, o'zbek tilidagi so'z boyligining kamligi tufayli keltirilgan ta'rifning qisqa va nisbatan noaniqligi o'quvchilarga vazifani bajarishda ma'lum darajada qiyinchilik tug'dirgan. Shu sababli sinaluvchilardan olingan javob variantlarining aksariyati ta'rifda nazarda tutilgan so'zdan farq qiladi.

Yuqoridagi kabi hodislardan ko'rish mumkinki, har bir bolada uning kognitiv rivojlanishining ma'lum bir davrida, rang ifodalovchi sifat deyarli boshqa barcha ranglarni o'rnini bosishi mumkin. Tajriba – sinov ishlari uchun o'tkazilgan so'rovnomalarda 3 – 4 - sinf o'quvchi qizlariga ko'proq pushti rang yoqishini aytishgan (So'rovnomalarda ilova tarzida beriladi) Masalan, "Menga pushti rang yoqadi Shermatova Dilafruz chunki men yaxshi ko'rgan qahramonlarim ko'proq shu rangda ko'ylaklar kiyishadi" Farg'ona tumani 1 - IDUMning 4 - sinf o'quvchisi. Ahmedov Kamron esa barcha rang ifodalovchi sifatlardan qizil rangni yoqtirishini, Nomonjonov Abdulloh esa yashil rangni yoqtiraman dedi. O'quvchilar ko'p hollarda asosiy ranglarni ajratib ko'rsatdilar. Murakkab rang sifatida ko'rsatiladigan

<sup>3</sup> Зухро АКБАРОВА, филология фанлари доктори, лойиха раҳбари. Наргиза УМАРОВА, Соҳиба ЗОКИРОВА, филология фанлари докторлари



pushti rangni qizlar ko'proq multfilm va kinoqahramonlarining ko'ylak ranglari bilan bog'lab yoqtirishlarini ko'rish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida davomli tarzda sensor tarbiya ya'ni hissiy sezgi a'zolarining takomillashish jarayonida o'ziga xos hissiy me'yorlar biri ikkinchisiga o'tadigan bo'lsa, sinestiziya holatlari yuzaga keladi<sup>4</sup>. Bunday holatda o'quvchi barcha predmetlarni ularning rangidan qat'iy nazar ko'k deb nomlashi mumkin.

Bolalar asosiy rang belgilarini juda erta, maktabgacha bo'lgan davrda atrofdagi kishilar nutqi va o'zaro muloqot qilish, atrof-olamni kuzatish jarayonida orqali o'rganadi. Natijada kichik yoshdagi bolalarda dastlabki olam real, lisoniy, lingvorangli manzarasi shakllanishni boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda lingvorangli olam manzarasini shakllantirish o'quvchilarda ranglarning nomlari va ularning rang-tus ottenkasini ifodalovchi birliklarni nutqda qo'llash, atrof-olamdagi narsalarning ranglarni aniqlash, o'zi mansub olamdagi narsalarning rangini qiyoslash, ularning o'xshashligi va farqini aniqlash qobilyatini shakllantirishni talab qiladi. Bolalar tabiatdan o'zlashtirilgan ranglarni turli faoliyati davomida farqlab boradilar. Ba'zan o'yin jarayonida, ba'zan esa ona tilini o'rganish jarayonida, musiqa, tasviriy san'at va tabiat darslarida, tabiat qo'yniga qilingan sayohatlar vaqtda, ertaklar, topishmoqlar, she'rlarda, maqollarda, frazeologik birliklarda rang ifodalovchi sifatlar qo'llaniladi: Oq ko'ngilli qiz, odam olasi ichida. Bizning tadqiqotning vazifasi kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ongida va nutqida olamning rangli manzarasini nutq madaniyatining ko'rsatkichlaridan biri sifatida bolalikdan shakllantirib butun maktab davrida davom ettirishdir.

Bolalarda nutqni o'z vaqtida va to'g'ri rivojlantirish shaxsni shakllantirishning zaruriy shartlaridan biridir. O'quvchilar nutqining ekspressivligini rivojlantirish o'quvchiga qator kommunikativ vaziyatlarni ijobiy hal etishda yordam beradi. Bu esa o'z navbatida ularda qanday kommunikativ madaniyatni shakllantiradi. Shaxs rivojlanish strukturasi esa intellektual va hissiy rivojlanishni shaxs madaniyati shakllanishining asosiy takribiy qism sifatida qaraladi. O'quvchilar muloqot jarayonida ifodali nutqqa murojaat qilish uchun tilning so'z yasash hamda ekspressiv bo'yoqdor so'zlarni qo'llash kabi turli imkoniyatlaridan foydalanishni ona tili ta'limi jarayonida o'zlashtirib boradilar.

Ifodali nutq muloqot vaqtida o'quvchi-tinglovchining chalg'ish darajasini pasaytirgan holda lozim darajada kuchli ta'sir qilib, uning diqqat-e'tiborini tortishi mumkin. Bunday ifodali nutq esa, kichik yoshdagi maktab o'quvchilari va o'qituvchi o'rtasida muvaffaqiyatli muloqot vaziyatini yaratishga qodirdir. Ta'lim sharoitida muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizlik o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ahloqiy rivojlanishi bilan ham chambarchas bog'liq. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini o'rgatish jarayonida nutq turlarini va zamonaviy til me'yorlariga hamda nutq odobiga rioya etishni o'rgatish orqali umumiy kommunikativ madaniyat singdirib boriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini asta-sekin o'zlashtirib borishi o'quvchilar nutqini rivojlantirishning zaruriy komponenti hisoblanadi. Ayni paytda maktabdan boshlab yuqori nutq madaniyatini

<sup>4</sup> Цейтлин, С.Н. Язык и ребёнок: Лингвистика детской речи: Учеб пособие для студ. высш. учеб. заведений - М.: Владос, 2000. –



o'zlashtirish boshlang'ich sinf o'quvchisiga ta'lim jarayonida o'qituvchilar va tengdoshlari bilan muvaffaqiyatli kommunikativ aloqaga kirishish imkonini beradi. Ko'p hollarda bolalar o'zlari qo'llagan so'z ma'nolarini qanchalik muhimligini tushunmaydilar. Masalan rang bildiruvchi leksik birliklarning ma'nosini ifodalayotgan rang bilan ma'no jihatdan mos yoki mos emasligini ba'zan ajratmaydilar. Ma'lum fikrni ifodalashda bolalar tilda avvaldan mavjud so'z yasash modellari bilan birga okkozinal so'z yasash usulini ham qo'llaydilar. Masalan: kir pushti, pum pushti, olov yashil, yulduzrang.

Ko'rinadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtirgan rang ifodalovchi leksemalar ular borliqda, ya'ni tabiatda ko'rayotgan ranglariga nisbatan so'z zahirasida ranglarini ifodalovchi leksik birliklar yetarli emas. Shunga ko'ra bolalar o'zlariga qulay tarzda rang ifodalashga harakat qiladilar. Bu boradagi muammoli masalalarni o'rganar ekanmiz aynan bolalar nutqida so'z yasash jarayonlarida uchraydigan turli o'ziga xosliklarda psixolingvistik omillarning ham o'rni borligi kuzatilgan.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, rang ifodalovchi leksika sifatning asosiy qismini tashkil etadi. Rang ifodalovchi sifatlarning o'ziga xos xususiyati va bolalar lingvorangli manzarasiga tegishli guruhlarini o'rganish tilshunoslik nuqtai nazaridan ham, pedagogik va amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // ВЯ - 1994. - № 4. - С. 17-33 б.
2. Shaxobidinova, S., Akbarova, Z., & Rustamovna, U. N. R. U. N. (2023). NEYROLINGVISTIKANING NAZARIY ASOSLARI VA METODLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (4), 55-55.
3. КСКТ. Краткий словарь когнитивных терминов / Под ред. Е.С. Кубряковой. - М., 1996
4. Akbarova Z. A. Teaching to Express Subjective Assessment of Pedagogical Psychological Characteristics of Preschool Children. *Texas Journal of Philology, Culture and History*.2023
5. Зухро АКБАРОВА, филология фанлари доктори, лойиха раҳбари. Наргиза УМАРОВА, Соҳиба ЗОКИРОВА, филология фанлари докторлари
6. Кубрякова, Е.С. Роль словообразования в формировании языковой картины мира / Е. С. Кубрякова // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира / Б.А. Серебrennikov, Е. С. Кубрякова, В.И. Постовалова и др. – М. : Наука, 1988. – С.18
7. Харченко, В. К. Сложные слова в детской речи / В. К. Харченко, Е. Г. Озерова. – Белгород : Изд-во Белгородского университета, 1999.